


Xorazm viloyatida 2018-yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi.

Mamlakatimizda 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2018-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2479,3 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,2 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi 2018 yil yanvar-iyun holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 95,65 foizni tashkil etdi (2017-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 115,4 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,001 foizni (o'sish sur'ati 107,7 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 3,6 foizni (o'sish sur'ati 86,8 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,75 foizni (o'sish sur'ati 143,6 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lган Xazorasp tumani (2017-yil yanvar-iyun oyilarga nisbatan 127,6 foiz), Shovot tumani (117,6 foiz), Urganch tumani (115,1) va Qo'shko'pir tumani (113,1 foiz)ga o'sganini ko'rish mumkin

2018-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)




2018-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd.so'mda)



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

2018-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 40,7 foiz, Urganch shahri 24,2 foiz, Xonqa 7,6 foiz, Bog'ot 5,9 foiz, va Shovot tumani 4,8 foizni tashkil qiladi.

2018-yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.

Iqtisodiy faoliyat turlari	mldr.so'm	O'sish sur'ati, foiz hisobida
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	2479,3	114,2
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,01	107,7
ulardan:		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,01	107,7
Qayta ishlash faoliyati	2371,6	115,4
undan:		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	469,9	100,8
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	84,3	113,5
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	560,1	103,6
Kiyim ishlab chiqarish	29,4	157,2
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	3,4	105,2

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>mldr.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	2,1	101,5
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	6,5	102,9
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,4	107,7
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,02	107,3
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	4,6	104,9
Asosiy farmasevtika	3,2	107,9
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	11,2	108,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	82,4	108,8
Metallurgiya sanoati	7,5	109,5
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	58,9	128,4
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,01	107,2
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	9,1	104,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	58,5	110,1
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	905,7	136,1
Mebel ishlab chiqarish	10,0	104,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	56,7	93,9
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	7,7	95,2
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	89,2	86,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	18,5	143,6
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	1543,8	115,5
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	431,1	105,8
nooziq-ovqat tovarlari	1096,6	120,3


**2018-yil yanvar-iyun oylaridda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(mlrd. so'm)**




Viloyatda 1543,8 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2017-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 115,5 foizni tashkil etdi.

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)**

2017 yil yanvar-iyun




2018 yil yanvar-iyun




- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari

Shahar va tumanlarda 431,1 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 1096,6 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2017-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mos ravishdda o'sish sur'ati 105,8 foiz va 120,3 foiz) ishlab chiqarildi.


**2018-yil yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.
(foizda)**



2018-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2018-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
“Sanoat statistikasi” bo'limi
Nashr uchun ma'sul: K.Kuryazov
Aloqa telefoni (0362) 224-64-99**